

TILSHUNOSLIKDA GAP BO‘LAKLARI YUZASIDAN NAZARIY QARASHLAR

Ruziyeva Dilnoza Furqatovna

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda gap bo‘laklar yuzasidan jahon va o‘zbek tilshunosligidagi nazariy qarashlar o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: ega, kesim, jumla, gap, sintaksis, predikat, til, nutq, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol, bosh bo‘laklar, ikkinchi darajali bo‘laklar.

Tilshunoslikda gapga nutq birligi sifatida qaraladi. So‘z va uning borliqda anglatadigan ma’nolari turli –tumandir. Bu ma’nolar ayniqsa, so‘zlar gap tarkibiga kiringandan so‘nggina oydinlashadi. Tilshunos olimlar N.Turniyozov va K. Turniyozovalarning fikriga ko‘ra, “So‘z paradigmatic qatordan sintagmatik qatorga o‘tgach, shu qatorning ichki qonun –qoidalariga bo‘ysungan holda, yangicha mazmun va funksiyalar kashf eta boshlaydi. Endi u, sintaktik aloqalar maskani bo‘lgan ma’lum bir gapning ajralmas tarkibiy bo‘lagi sifatida faoliyat ko‘rsatadi”.¹ Shu sababdan ham, I.P.Raspopov ham gapning ko‘p pog‘onali ekanligini tan olgan holda, konstruktiv-sintaktik va kommunikativ-sintaktik sathlardan iborat ekanligini aytadi. Uning ta’kidlashicha, konstruktiv- sintaktik sath gapning zaruruy qismi bo‘lsa ham, lekin hali gap emas. Gapning o‘ziga xos asosiy belgilari kommunikativ-sintaktik sath birliklari bo‘lgan modallik va aktuallik konstruktiv-sintaktik baza ustiga qo‘shilgandagina uni gapga aylantiradi.²

Gap va uning tarkibiga oid bunday qarashlarda turlichaliklar ko‘zga tashlanadi. Masalan, N.Mahmudov va A.Nurmonovlarning “O‘zbek tilining nazariy

¹ Turniyozov N., Turniyozova K. Funktsional sintaksisga kirish.-Toshkent: Fan,2003

² Nurmonov A., Mahmudov N.,Ahmedov A.,Solixo‘jayeva S.O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi.-Toshkent:Fan,1992

grammatikasi “darsligida “Bog‘li nutqning axborot tashuvchi eng kichik birligi va shunday birliklarning umumlashgan namunasi gapdir. Demak, sintaktik sathning asosiy birligi va sintaksisning asosiy o‘rganish obyekti gap hisoblanadi. Gap bir butunlik sifatida gap bo‘laklaridan va so‘z bo‘laklaridan tashkil topadi. Demak, gapning ichki tuzilish birligi gap bo‘laklari va so‘z birikmalaridir”.¹ Gapni bo‘laklarga ajratish tamoyillari borasida qarashlar masalasida an’anaviy sintaktik tahlilning ba’zi kamchiliklari to‘g‘risida tilshunos olimlar tomonidan turli nazariyalar ko‘zga tashlaansa-da, biroq hali bu masala o‘z yechimini topmagan. Rus tilshunosi Z.D.Popova gap bo‘laklarining gapdagi vazifalarini konkret ifodalashga harakat qiladi va “subyektiv” va “predikativ “ terminlaridan foydalanadi. Bundan tashqari, V.V. Vinogradov gapning ikkinchi darajali bo‘laklari masalasini qaytadan tahlil qilib chiqish lozimligini, ular grammatik tamoyillarga uzviy asoslanmaganligi tufayli gap tarkibida yuzaga chiqayotgan jonli sintaktik aloqalarni to‘liq ifodalay olmayotganligini ta’kidlaydi.

Tilshunos olim Turniyozov N. ham yuqoridagi fikrlarga qo‘shilgan holda , odatda, gap sintaktik unsurlarining sintaktik tahlili jarayonida grammatik funksiyalariga ko‘ra bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratilishini, ammo sintaktik tahlilning bu turida bir qator kamchiliklar ko‘zga tashlanishini ta’kidlaydi. Masalan ,kirish so‘z va undalmalarni gap bo‘laklari qatoriga kirita olmaymiz. Bunday holatlarda gap unsurlarining formal-sintaktik jihatlari e’tiborga olinmaydi.²

A.G‘.Gulomovning sodda gap darsligida gap nutqning bir bo‘lagi bo‘lib, u tugallangan bir fikrni ifodalaydi. Har bir tugallangan fikr so‘zlar yig‘indisi-so‘z birikmasi yoki ayrim so‘z bilan ifodalanadi. Bu birikma nutqning fikr anglatishdagi eng sodda, bo‘linmas qismidir.³

Bu fikrlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, gap inson nutqining nisbiy tugal fikrni ifodalaydigan-voqelikni ifodalaydigan va unga munosabat bildiradigan

¹ Mahmudov N., Nurmonov A., O‘zbek tilining nazariy grammatikasi .-Toshkent: O‘qituvchi, 1995

² Turniyozov N., Turniyozova K. Funktsional sintaksisga kirish.-Toshkent: Fan,2003

³ Gulomov A.G‘., Sodda gap .-Toshkent: O‘zFA,1955

grammatik jihatdan shakllangan bo‘linmas eng kichik bo‘lagidir. Gapning mazmuniy tugalligi undagi ohang tugalligi bilan mos keladi. Og‘zaki nutqimizda gapning mazmuniy-grammatik yaxlitligini ohang ifodalaydi. Ba‘zi so‘zlarning, so‘z shakllarning gap holida shakllangan yoki shakllanmaganligini og‘zaki nutqda ohangdan farqlaymiz. Masalan: 1.Chiroyli gul. 2.Gul chiroyli. Bu misollarning birinchisi gap holida shakllanmagan, chunki unda gapga xos bo‘lgan ohang tugalligi yo‘q. Bu misolda bir aniqlovchi va bir aniqlanmishning aloqasi ifodalangan. Ikkinchi misolda esa gapga xos bo‘lgan ohang tugalligi bor, bu ohang tugalligi fikr tugallanganligini va gap hosil bo‘lganligini anglatadi. Aniqlovchi va aniqlanmish munosabatida bir tasavvur ikkinchi tasavvur umumiy belgisi sifatida aniqlanadi. Bunda murakkab tasavvurning ichiga kiradigan sodda tasavvurlarning o‘zaro munosabati aks etadi bularni bir- biridan ayro holatga qo‘ysak, munosabat o‘zgaradi: ega va kesim munosabati yuzaga keladi, gap shakllanadi. Bundan tashqari, tilshunos olim A.G‘.G‘ulomov sodda gapning bo‘laklarga ajratilishi borasida quyidagi fikrlarni aytib o‘tadi. Gapdagi bo‘laklar fikriy-grammatik tomonlariga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: bosh bo‘laklar va ikkinchi darajali bo‘laklar. Ikki tarkibli gaplardagi har bir tarkibning hokim so‘zlari birlikda gapning bosh bo‘laklarini tashkil etadi. Bu so‘zlar ega bilan kesimdir. Ega o‘z tarkibidagi so‘zlarga hokim(shu tarkibning bosh so‘zi) bo‘lganidek, kesimning ustidan ham hokimdir. Kesim egaga nisbatan tobe’, o‘z tarkibidagi so‘zlarga nisbatan hokimdir (shu tarkibning bosh so‘zi).¹ Masalan,

Bahorning ko‘m-ko‘k maysalari dillarga quvonch bag‘ishlamoqda Ega tarkibi—bahorning ko‘m-ko‘k maysalari; kesim tarkibi-dillarga quvonch bag‘ishlamoqda. Bundagi maysalari elementi(ega) bahorning,ko‘m-ko‘k bo‘laklariga va shuningdek, bag‘ishlamoqda elementiga ham hokim: bag‘ishlamoqda bo‘lagi (kesim) dillarga, quvonchni bo‘lagiga hokimdir.

Gap bo‘laklarini ajratish masalasiga turli davrlarda turli nazariyalar asosida yondashildi. Bunday qarashlarning har biri o‘z navbatida gap bo‘laklari to‘g‘risidagi nazariyalarning takomillashishiga o‘z hissasini qo‘shdi.

¹ G‘ulomov A.G‘., Sodda gap .-Toshkent: O‘zFA,1955

1988- yilda nashr etilgan Omonturdiyev J.ning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida gap bo‘laklari tipologiyasi “ asarida gap bo‘laklarining funksional klassifikatsiyasi masalasiga to‘xtalib ,olimlar gap bo‘laklarining funksional turlariga ta’rif beradilar-u, bo‘lak tushunchasini belgilash va ta’riflashga e’tibor bermaydilar.Holbuki, gapni bo‘laklarga ajratish gapning strukturasi o‘rganish uchun asosiy va boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari “hol” termini dastlab M.V Lomonosovning “ Российская грамматика “ asarida qo‘llanilganligini, gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari haqidagi nazariya birinchi bo‘lib falsafiy grammatikada yoritilganligi va bu boradagi qarashlar N.I.Grech va A.X.Vostokovlarning tadqiqotida ikkita ikkinchi darajali bo‘lak aniqlovchi va to‘ldiruvchi tan olinganligi, hol esa qisman aniqlovchi va qisman to‘ldiruvchiga kiritilganligini qayd etadi.¹ Gap bo‘lagi sifatida hol P. M. Perelevskiyning “ Начертание русского синтаксиса”, F.I.Buslayevning maktab uchun tuzilgan darsliklarida bir qadar tiklandi. Buslayev gap bo‘laklarini ajratishda nisbatan to‘g‘ri yondashgan holda ikki usuldan foydalanadi:1) sintaktik boshqarilishga; 2) ma’noviy mosligiga. Bunday qarash natijasida tobe-hokimlik munosabati asos qilib olingan edi.Buslayev qarashlarining kamchilik tomoni shunda ediki, olim morfologiyani gap bo‘laklariga asos qilib olgan edi. Bunda morfologik va sintaktik sathlar farqlanmay qolgan edi. Bu qarash davomchilari Ovsyaniko, Potebnyalar ham morfologiya asosida gap bo‘laklarini ajratdilar va so‘z turkumlarini gap bo‘laklari bilan teng hodisa deb qaradilar.Peshkovskiy o‘z qarashlarida ikkinchi darajali bo‘laklarga nisbatan formal va logic tomonlarini birgalikda qaradi. Shuning uchun ham gapda ega va kesimdan tashqari quyidagi ikkinchi darajali bo‘laklarni tasnif etdi: 1)boshqaruvli ikkinchi darajali bo‘laklar(predlogli va predlogsiz vosita kelishigidagi otlar); 2) moslashuvli ikkinchi darajali bo‘laklar (predikativlashmagan, substantivlashmagan sifatlar); 3)bitishuvli ikkinchi darajali bo‘laklar(ravish,ravishdosh,infinitiv) shaklida kelishini qayd etdi.

¹ Omonturdiyev J.Hozirgi o‘zbek adabiy tilida gap bo‘laklari tipologiyasi, 1988

Jumladan, 1994- yilda nashr etilgan Boshmonov M. ning “Gap bo‘laklarini sistema sifatida o‘rganish” monografiyasida gap bo‘laklariga sistem-struktur jihatdan yondashishning to‘g‘riligini yoqlab, bu yo‘nalish gap bo‘laklari borasidagi bir qancha muammoli tomonlarga yechim topishini ta’kidlaydi. Olim gap bo‘laklarini tekshirish uchun, eng avvalo, tilga xos bo‘lgan va nutqqa xos bo‘lgan farqlanishi lozimligini uqtiradi va bu borada Ferdinand de Sossyurning mulohazalariga tayanadi. Olimning nazarida bunday farqlanish ularning ontologik tabiatiga to‘la mos keladi. Tilga xos hamda nutqiy jihatlarni farqlash gap bo‘laklarni o‘rganishning dastlabki va asosiy sharti bo‘lmog‘i lozim.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, bunday nazariyalar gapni bo‘laklarga ajratish borasida o‘z o‘rnini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turniyozov N., Turniyozova K. Funktsional sintaksisga kirish.-Toshkent: Fan,2003
2. Nurmonov A., Mahmudov N.,Ahmedov A.,Solixojayeva S.O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi.-Toshkent:Fan,1992
3. Mahmudov N.,Nurmonov A., O‘zbek tilining nazariy grammatikasi .-Toshkent: O‘qituvchi, 1995
4. Turniyozov N., Turniyozova K. Funktsional sintaksisga kirish.-Toshkent: Fan,2003
5. G‘ulomov A.G‘., Sodda gap .-Toshkent: O‘zFA,1955
6. G‘ulomov A.G‘., Sodda gap .-Toshkent: O‘zFA,1955
- 7,Omonturdiyev J.Hozirgi o‘zbek adabiy tilida gap bo‘laklari tipologiyasi, 1988